



TARAQQIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-23, (November) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

USMONOVA Shoxsanam Shavkatovna

*Andijon davlat pedagogika instituti
o'qituvchisi*

YOSHLARNING IJTIMOYIY HARAKATCHANLIGINI YUKSALTIRISH OMILLARI

Mamlakatda yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan yoshlar siyosati samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik vazifalarning amalga oshirilishi O'zbekistonda barqarorlik, tinchlik va farovonlikni ta'minlashga sezilarli darajada ta'sir qilmoqda. Yoshlarning harakatchanligi jamiyatning taraqqiyoti uchun muhim omildir. Yoshlarning faolligi va tashabbuskorligi jamiyatni yangilashga, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Ijtimoiy harakatchanlik yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy rolini o'zgartirishga bo'lgan xohishi, ijtimoiy muammolarni hal qilishga qo'shilgan harakatlari, jamoatchilik faolligida ishtirok etishi kabi jihatlarni qamrab oladi.

Sorokinning qarashlariga ko'ra, ijtimoiy harakatchanlikning eng oddiy ta'rifini ilgari suradi. "Ijtimoiy harakatchanlik deganda shaxs yoki ijtimoiy ob'ekt yoki qiymatning har qanday harakati tushuniladi - inson faoliyati bilan yaratilgan yoki o'zgartirilgan barcha bir pozitsiyadan ikkinchi pozitsiyaga o'tgan barcha narsalar ijtimoiy harakatchanlikning natijasidir" [1].

Boshqa xorijiy manbalarda keltirilishicha, ijtimoiy harakatchanlik – bu insonning ijtimoiy qatlamini o'zgartirish imkoniyatidir. Ijtimoiy harakatchanlik tushunchasi ma'no jihatidan ijtimoiy martaba tushunchasiga yaqin holatda ishlatilib kelinadi. Shunga ko'ra "ijtimoiy harakatchanlik-bu shaxs yoki guruh tomonidan ijtimoiy tuzilmada (ijtimoiy mavqe) e'gallagan joyning o'zgarishi, bir ijtimoiy qatlamdan (sinf, guruh) boshqasiga (vertikal harakatchanlik) yoki bir xil ijtimoiy qatlam ichida (gorizontal harakatchanlik) o'tishdir" [2].

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatlarda ijtimoiy harakatchanlik sezilarli darajada oshib bormoqda. Shunga ko'ra ijtimoiy harakatchanlik gorizontal va vertikalga bo'linadi. "Gorizontal harakatchanlik-bu shaxsning bir xil darajada joylashgan bir ijtimoiy guruhdan boshqasiga o'tishi. Vertikal harakatchanlik-bu odamni korporativ zinapoyadan yuqoriga yoki pastga ko'tarish"dir [3].

Bunda ayniqsa yoshlar faol bo'ladi. Birinchisi harakatchanlik gorizontal harakatchanlik-bu shaxsning bir ijtimoiy guruhdan bir xil darajada joylashgan boshqasiga o'tishi (masalan: boshqa diniy jamoaga o'tish, fuqarolikni o'zgartirish)kabilarda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda shaxsiy harakatchanlik o'rtasida farq bo'lishi kerak, ya'ni bir kishining boshqalardan mustaqil harakati va guruh harakatchanligidan farq qilib gohida umumiy harakatchanlikka sabab bo'ladi. Bundan tashqari, gorizontal harakatchanlikni bir shakli geografik harakatchanlik bo'lib u boshqalaridan — bir xil maqomni saqlab, bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tish (Masalan: xalqaro va mintaqalararo turizm, shahardan qishloqqa yoki ortga qaytish)da ajralib turadi.

Ikkinchi harakatchanlik vertikal harakatchanlik-bu shaxsni korporativ zinapoyadan yuqoriga yoki pastga ko'tarilishidir. Yuqoriga harakatchanlik-bu ijtimoiy ko'tarilish, yuqoriga ko'tarilish harakati hisoblansa, pastga harakatchanlik-bu ijtimoiy tushish, pastga qarab harakat qilishdir.

Vertikal harakatchanlik ko‘pincha muhokama qilishning zamonaviy kontekstida ishlatiladigan elita nazariyasi bilan bog‘liq, ya‘ni hukmron elitaning vositalaridan biri sifatida yoki kengroq kontekstda ijtimoiy pozitsiyani o‘zgartirish ierarxiyasidir. Shu o‘rinda alohida o‘ringa ega hisoblangan avlodlararo harakatchanlik-bu turli avlodlar o‘rtasidagi ijtimoiy mavqeining qiyosiy o‘zgarishidir. Yosh avlod ichidagi harakatchanlik bizningcha, “ijtimoiy martaba”- bu bir yosh avlod ichidagi maqomning o‘zgarishidir.

Ijtimoiy harakatchanlikni tashkil etuvchi vertikal va gorizontal harakatchanlikka jins, yosh, tug‘ilish darajasi, o‘lim darajasi va aholi zichligi ta’sir qiladi. Umuman olganda, yoshlar ayollar va qariyalarga qaraganda ko‘proq harakatchan hisoblanadi va ular ijtimoiy harakatchanlikning mexanizmini tashkil etadi.

Bunda aholisi ko‘p bo‘lgan mamlakatlar immigratsiya (boshqa mintaqadan fuqarolarning doimiy yoki vaqtincha yashashlari uchun mintaqaga ko‘chib o‘tish)dan ko‘ra emigratsiya (iqtisodiy, siyosiy va shaxsiy sabablarga ko‘ra bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chirish) oqibatlarini boshdan kechirish ehtimoli ko‘proq yuzaga keladi. Tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan joyda aholi yoshroq va shuning uchun harakatchanroq va faolroq bo‘ladi. bu bevosita milliy xarakter tushunchasi bilan hamohang shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy harakatchanlikning yuqori bo‘lishi yoshlar faoliyatiga bevosita bog‘liqdir. Bu esa har qanday jamiyatning yuqoriga ko‘tarilishni xohlaydigan ko‘p yoshlar borligi bilan ifodalanadi.

Bizningcha, birinchidan, oila – yaxshi oila o‘z farzandiga yaxshi meros va yaxshi ta’lim berishga qodir bo‘lish orqali bu mexanizm jamiyatda ishga tushadi. Ikkinchidan, ta’lim darajasi yoshlarga nafaqat bilim berish, balki imtihon va kuzatuvlardan foydalanib, kim iste’dodli va kim iqtidorli bo‘lsa uni aniqlab ijtimoiy hayotga etkazib berishdan ham iboratdir. Bu esa ta’lim insonning o‘z qobiliyatlarining jamiyat taraqqiyotiga va rivojlanishiga muvofiq shakllanib boradi. Ijtimoiy harakatchanlik jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilar ekan mavjud millat yoshlarining ham milliy harakterini mustahkamlab, shakllantirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сорокин П.А. Социальная мобильность. М.: Academia, 2005 (Sorokin P.A. Social mobility. N.Y.; L.: Harper & Brothers, 1927).
2. Энциклопедия социологии, 2009. <http://sociology.niv.ru/doc/encyclopedia/socio/index.htm>
3. Проскура О. В., Герасимчук И. Ю. Понятие мобильности. Виды мобильности. Академическая мобильность. Вестник Челябинского государственного университета. 2014. № 13 (342). Образование и здравоохранение. Вып. 4. С. 94-98.